

BOLANI QO'LLAB-QUVVATLASH YO'LLARI



Bolaning kuchli
qirralariga tayaning

Bolaning xato,
kamchiliklarini
hadeb yuziga
solavermang

Bolani sevishtni
bildirib, g'amxo'rlik
ko'rsatib, uning
yaxshi ishlaridan
xursandligingizni
bildirib turing

O'zini va boshqalarni
yaxshi ko'rishga
o'rgating

Bolangiz bilan
hazillashib turing

Bolangizning yaxshi
sifatlarini ko'ring,
unga aytib turing va
ularga tayaning

Bolangiz o'ziga
tegishli ishlarda
mustaqil qarorlar
qabul qilishiga
qo'yib bering

Vaziyatni
jazolashgacha olib
bormang

Bolangiz o'ziga xos,
betakror. Shuni
yaxshi biling

Bolangizni yaxshi
ko'rishingizni bildirib
turing. Bolaligida
ham, ulg'ayganida
ham

Bolangizga uning
oilada o'z o'zni
borligini bildirib
turing

Tushkunlikka
tushganida qo'llab-
quvvatlang

Erishgan
muvaffaqiyati
sururini his qilishiga
sharoit yaratib
bering

Uning kattalar,
tanish-notanishlar,
tengdoshlari bilan
muomala qilishini
kuzatib, maslahat
berib boring

Katta muammoni
kichik bo'laklarga
bo'lib hal qilishga
o'rgating

Bolangizga o'zini o'zi
tushunishga yordam
bering

Bolangizga g'ururli
bo'lishda, o'z qadrini
bilishida yordam
bering

Uning har bir ishni
o'zi hal qilishga
intilishini qo'llab-
quvvatlang

MANA BU USULLAR ZARARLI

- » Norozilikni g'azabli tonda bildirish.
- » Bola qilgan xatoni ko'pirtirib, oshirib, alam qildirib gapirish.
- » Kamchiliklarini tinimsiz betiga solaverish.
- » Bola qilgan xatosini so'rab-surishtirmasdan, biryoqlama, bepisand baholash.
- » Adolatsiz jazolash.
- » Oshirib maqtayverish.
- » Bolani boshqalardan bo'lib, ajratib qo'yish.
- » Qo'pol buyruqlar berish, qo'rqitish.
- » Bolaning xatosini boshqalarga aytib yurish.

